



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№ 10



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 317 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-oktyabrda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor

Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate

Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor

Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor

Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor

Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)

Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)

Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor

Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan

Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan

Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor

Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer

Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor

Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)

Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)

Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow))

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor

Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)

Mirzaliyev Sanjar Makhmatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE

Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

QAYTA TIKLANUVCHI YASHIL ENERGIYA: BARCHA UCHUN MUHIM MASALA.....	13
Muxiddin Kalonov	
MOLIYAVIY INNOVATSIYALAR: IQTISODIY MOHIYATI, QO‘LLANILISHI VA RIVOJLANISHI.....	19
Quliyev Begimqul Melikovich	
SAVDO KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA STATISTIK TAHLIL USULLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.....	24
Sabirova Oysuluv Shonazarovna	
KORXONANING MEBEL MAXSULOTLARI BOZORIDAGI O‘RNINI KENGAYTIRISH USULLARI	30
Musayeva Shoira Azimovna	
IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA KO‘RSATKICHLARI TIZIMINING FUNKSIONAL JIHATI.....	35
Alabayev Sobitxon	
MAMLAKATIMIZDA MAHSULOTLARNING MUVOFIQLIGINI BAHOLASH AMALIYOTI.....	40
Zakirov Ansabxon Akaidinovich	
ПЕСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ЗЕЛЁНЫХ ОБЛИГАЦИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	48
Саидахмедова Аида Мирзаевна	
KORXONALAR FAOLIYATIDA DEBITOR VA KREDITOR QARZDORLIKNI BOSHQARISH	55
Mirzayev Ozod Furkatovich	
AHOLI PUL DAROMADLARI VA HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISH KO‘RSATKICHLARI O‘RTASIDAGI EKONOMETRIK TAHLIL.....	59
Qodirov Farrux Ergash o‘g‘li	
BUDJET RESURSLARI SHAKLLANISHIDA HUDUDNING SOLIQ SALOHİYATINI OSHIRISH VA MOLIYAVIY BARQARORLIK.....	64
Yuldashev Adhamjon Axadjonovich	
SANOAT KORXONALARI IQTISODIY RIVOJLANISHI TUSHUNCHASIGA NAZARIY YONDASHUVLAR.....	69
Muydinov Xusniddin Nuriddin o‘g‘li	
МЕТОДИКА УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМИ ПОТОКАМИ В СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЕТА	73
Минутдинова Лилия Тагировна, Машарипов Озод Алимович	
ГАРМОНИЗАЦИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ СТАНДАРТОВ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН В СООТВЕТСТВИИ С МСФО	78
Абдужалилова Дилноз Абдусаттаровна	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA SMART TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARBLIGI.....	84
Sobirjonov Muxiddin Toxirjon o‘g‘li	
TO‘LOVGA QOBILIYATSIZLIK HOLATIDAGI KORXONALARDA TUGATISH BALANSINI TUZISH.....	90
Nabiyev Gofurjon Nosirjon o‘g‘li	
O‘ZBEKISTON SANOATINING “YASHIL” IQTISODIYOTGA O‘TAYOTGANLIGI: IMKONIYATLAR VA CHEKLOVLAR	96
Habibullayev Oybek Asliddin o‘g‘li	
YASHIL IQTISODIYOT KONTSEPTSIYASINING EVOLYUTSIYASI VA ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR.....	102
Allayarov Suxrob Rustamovich	
O‘ZBEKISTONDA TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI CHET EL INVESTITSIYALARINING MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI	107
Raxmatov Adxam Itolmasovich, Boynazarova Matluba Xatamovna	



HUDUDIY IJTIMOY TENGLIK VA QASHSHOQLIKNI YUMSHATISHDA MEHNAT RESURLARI OMILLARI.....	114
Durumov Temur G'olibovich	
TRANSPORT TARMOG'I VA MILLIY IQTISODIYOTNING ASOSIY TARMOQLARI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIKNI MODELASHTIRISH (SURXANDARYO VILOYATI MISOLIDA)	121
Turayev Baxtiyor Ergashevich, Aymatov Sirojiddin To'raqul o'g'li	
РОЛЬ ЭНЕРГЕТИКИ В ФОРМИРОВАНИИ УСТОЙЧИВОГО РОСТА ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА.....	134
Нигматуллаева Гулчехра Нуруллаевна	
O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM BOZORINING RIVOJLANISH TENDENTSIYALARI VA UNDA SIFAT MENEJMENTINING ROLI.....	139
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
YER QA'RIDAN FOYDALANUVCHILARGA SOLIQ SOLISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	145
Zoxidov Ismatjon Yunusjon o'g'li	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TURIZM INDUSTRIYASIDA INNOVATSION BIZNES-MODELLAR.....	151
Shaxinabonu Choriyeva	
AVTOTRANSPORT – EKSPEDITSIYA XIZMATLARI BOZORIDA MARKETING KONTSEPSIYASI.....	157
Ergasheva Mukhabbat Abdusamatovna	
“YASHIL” ENERGIYA ISHLAB CHIQRUVCHI KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI SOLIQQA TORTISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	163
Toshtemirov To'liqin Toirjonovich	
DAVLAT IQTISODIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA SIYOSIY INSTITUTLARNING ROLI VA UNI KUCHAYTIRISH MEKANIZMLARI.....	166
O. Nurmuradov	
TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI BANK TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH ASOSLARI	171
Meyliqulov Shaxboz Xolmamat o'g'li	
СВЯЗНОСТЬ НАЦИОНАЛЬНЫХ И РЕГИОНАЛЬНЫХ СТРАТЕГИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ.....	176
Ташматов Гайрат Ровшанович, Содиков Авазбек Мадаминович	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI TURIZM SOHASINI RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	183
Zarikeyeva Miyasar Maratovna	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH TENDENSIYASI.....	187
Saidrahmatova Zuhraxon Saidazim qizi	
O'ZBEKISTON KONCHILIK SANOATI KORXONALARIDA INVESTITSION JARAYONLARNI BOSHQARISH VA INNOVATSION XAVFLARNI KAMAYTIRISH STRATEGIYALARI	192
Kurbanova Mehriniso Nematjanovna	
O'ZBEKISTONDA QULAY INVESTITSIYA MUHITINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI.....	196
Xuramov Zafar Rajabaliyevich	
PAHTA-TO'QIMACHILIK KLASTERLARIDA XOMASHYO TA'MINOTI BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING XORIJ DAVLATLAR TAJRIBASI.....	201
Zakirov Abduazim Abdurashidovich	
НОВЫЙ ЭТАП ПРИМЕНЕНИЯ РЫНОЧНЫХ МЕХАНИЗМОВ В ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ.....	206
Махкамов Ибраим	
O'ZBEKISTONDA SUG'URTA BOZORINING RIVOJLANISH TENDENTSIYALARI.....	213
Xushmuradov Oman, Ismoilov Sherzod Ismoil o'g'li	
GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA MILLIY IQTISODIYOT NAZARIYASI.....	217
Mo'ydinov Xurshidbek Abdullayevich	
DORIVOR O'SIMLIKLARNI QAYTA ISHLASHNING HOZIRGI HOLATI VA MUAMMOLARI	221
Usmonov Mirg'ulom Xoshim o'g'li	



BARQAROR IQTISODIY O‘SISHGA YERISHISHDA SUN’IY INTELLEKT TIZIMLARINI QO‘LLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILASHTIRISH (XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI MISOLIDA)	227
Nasrulloev Hayotjon Xabibulloevich	
НЕЙРОИНТУИТИВНЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ЕГО РОЛЬ В УПРАВЛЕНИИ РИСКАМИ В БИЗНЕСЕ.....	233
Ягудин Дмитрий Рустамович	
RESURLARNI SOLIQQA TORTISH AMALIYOTINING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI VA ULARNING MILLIY SOLIQQA TIZIMIDA QO‘LLASH MASALALARI	240
Nasimdjanoov Yunusjon Zoxidovich	
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI UCHUN QO‘LLANILAYOTGAN SOLIQQA TORTISH MEKANIZMLARI	246
Akbarov Akramjon Ibragimzhonovich	
TO‘QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA “YASHIL” MARKETINGNI JORIY ETISHNING DOLZARB JIHATLARI	250
Bazarova Fayyoza Tuxtamurodovna	
INSON KAPITALI VA IQTISODIYOTNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI.....	255
Muzaffar Raximov	
UY-JOY KOMMUNAL XO‘JALIGINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	259
Odamboyev Oybek Ravshanbek o‘g‘li	
INTERNATIONAL ORGANIZATIONS’ APPROACHES TO ATTRACTING INVESTMENT IN HUMAN CAPITAL	268
Akhmadaliyeva Nikholakhon	
RAQAMLI PLATFORMALAR ORQALI KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI.....	273
Vohobov Hikmatillo Ma‘mirjon o‘g‘li	
ФОРСАЙТ И ЭКОНОМИЧНЫЕ ИННОВАЦИИ КАК ДРАЙВЕРЫ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ТОРГОВЛИ САМАРКАНДА	280
Tohirova Gullola Mirkamolovna	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI BOSHQARISHDA KASB-HUNAR TA‘LIMI BITIRUVCHILARINING O‘RNI	287
Toshpulatov Sherzod Xaydarkulovich	
DIGITAL TECHNOLOGIES IN ECOTOURISM: INNOVATIVE STRATEGIES FOR ADVANCING GREEN TOURISM	292
Barno Erkayeva	
AGROTURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	296
Baymuradova Iroda Shermamatovna, Mardonova Zarifa Numonjonovna	
DAVLAT BUDJET NAZORATI TIZIMINI RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI	301
B.Sh.Mirzayev	
YOSHLAR BANDLIGIDA KO‘NIKMALAR NOMUTANOSIBLIGI MUAMMOLARI VA YECHIMLARI.....	307
Raxmatxo‘jayev Axrorxo‘ja Akmal o‘g‘li	
TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARINING EKSPORT SALOHİYATINI TAHLIL QILISH VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI BAHOLASH.....	311
Oqboyev Alisher Rasuljanovich	



TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARINING EKSPORT SALOHİYATINI TAHLIL QILISH VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI BAHOLASH

Oqboyev Alisher Rasuljanovich

Namangan davlat texnika universiteti
"Iqtisodiyot" kafedrası dotsenti, i.f.d (DSc)

Email: o.r.alishr@mail.ru

ORCID: 0009-0005-5272-0274

Annotatsiya: Maqolada to'qimachilik mahsulotlarining eksport salohiyati chuqur tahlil qilinib, uning rivojlanish tendensiyalari baholangan. Tadqiqotda ishlab chiqarish hajmi, eksport tarkibi va geografiyasi, hududlar kesimidagi ko'rsatkichlar hamda soha rivojiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar o'rganilgan. Shuningdek, eksport hajmining pasayish sabablari, mahsulotlarning asosan cheklangan bozorlar va ayrim tovar guruhlariga bog'lanib qolishi, shuningdek, iqtisodiy hamda siyosiy omillarning ta'siri ilmiy asosda tahlil qilingan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, to'qimachilik sanoati eksportini barqaror rivojlantirish uchun diversifikatsiya jarayonini kuchaytirish, yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish va yangi tashqi bozorlarni egallash zarur.

Kalit so'zlar: to'qimachilik mahsulotlari, eksport salohiyati, rivojlanish tendensiyalari, tahlil, hududlar kesimi, tikuv-trikotaj sanoati, eksport tarkibi, eksport geografiyasi, diversifikatsiya, qo'shilgan qiymat, mahsulot sifati, xalqaro standartlar, raqobatbardoshlik, moliyaviy barqarorlik, innovatsion faoliyat, marketing salohiyati, inson kapitali, investitsion jozibadorlik, tashqi bozorlar, eksport strategiyasi.

Abstract: The article provides an in-depth analysis of the export potential of textile products and assesses its development trends. The study examines the volume of production, the structure and geography of exports, indicators by region, and internal and external factors affecting the development of the sector. The reasons for the decline in export volumes, the dependence of products on a limited market and certain commodity groups, and the influence of economic and political factors are also analyzed on a scientific basis. The results show that for the sustainable development of textile exports, it is necessary to strengthen the diversification process, expand the production of high-value-added products, and capture new markets.

Key words: textile products, export potential, development trends, analysis, regional breakdown, garment and knitwear industry, export structure, export geography, diversification, added value, product quality, international standards, competitiveness, financial stability, innovative activity, marketing potential, human capital, investment attractiveness, foreign markets, export strategy.

Аннотация: В статье представлен углубленный анализ экспортного потенциала текстильной продукции и дана оценка тенденций его развития. В исследовании рассматриваются объёмы производства, структура и география экспорта, показатели по регионам, а также внутренние и внешние факторы, влияющие на развитие отрасли. На научной основе анализируются причины снижения объёмов экспорта, зависимость продукции от ограниченного рынка и отдельных товарных групп, влияние экономических и политических факторов. Результаты показывают, что для устойчивого развития экспорта текстильной продукции необходимо усиление процесса диверсификации, расширение производства продукции с высокой добавленной стоимостью и освоение новых рынков сбыта.

Ключевые слова: текстильная продукция, экспортный потенциал, тенденции развития, анализ, региональная структура, швейно-трикотажная промышленность, структура экспорта, география экспорта, диверсификация, добавленная стоимость, качество продукции, международные стандарты, конкурентоспособность, финансовая устойчивость, инновационная активность, маркетинговый потенциал, человеческий капитал, инвестиционная привлекательность, внешние рынки, экспортная стратегия.



KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida to'qimachilik sanoati yetakchi tarmoqlardan biri sifatida jadal rivojlanmoqda. Ushbu soha nafaqat ichki bozorni sifatli mahsulotlar bilan ta'minlashda, balki tashqi bozorlarda milliy brendni shakllantirishda ham muhim o'rin tutadi. Xususan, to'qimachilik mahsulotlari eksporti mamlakatimiz umumiy eksport hajmida sezilarli ulushga ega bo'lib, valyuta tushumlari hamda yangi ish o'rinlari yaratilishida asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Eksport salohiyatini tahlil qilish, uning tarkibi va diversifikatsiyasini o'rganish bugungi globallashuv sharoitida dolzarb masala sanaladi. Chunki xalqaro bozorlarda raqobatning kuchayishi, ekologik talablarning ortib borishi va xalqaro standartlarga moslashish zarurati korxonalaridan mahsulot sifati hamda ishlab chiqarish samaradorligini doimiy ravishda oshirishni talab etadi. Shu nuqtayi nazardan, to'qimachilik mahsulotlarining eksport salohiyatini aniqlash va uni rivojlanish tendensiyalari bilan uyg'un holda baholash ilmiy hamda amaliy ahamiyatga ega.

Shundan kelib chiqib, to'qimachilik mahsulotlarining eksport salohiyatini tahlil qilish va rivojlanish tendensiyalarini baholash orqali sohaning kelajak istiqbollari aniqlash, milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun zarur bo'lgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

To'qimachilik mahsulotlarining eksport salohiyatini oshirish masalasi milliy iqtisodiyotda muhim strategik yo'nalishlardan biri sifatida shakllanib bormoqda. So'nggi yillarda bu borada ishlab chiqarish jarayonlarida xalqaro standartlarni joriy etish, sifat menejmenti tizimlarini takomillashtirish va innovatsion yondashuvlarni keng qo'llash zarurati alohida e'tiborga olinmoqda. Oqboyev A. (2025) o'z tadqiqotida tadbirkorlik subyektlari faoliyatida xalqaro standartlarni joriy etish metodologiyasini ishlab chiqib, ularning eksport faoliyatiga bevosita ta'sirini asoslab bergan. Muallifning fikricha, xalqaro standartlarga mos ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etish mahsulot sifati va raqobatbardoshligini oshirib, eksport geografiasini kengaytirish imkonini beradi.

Okboev A.R. va Ashurkulov O.J. tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda yengil sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishda integratsiyalashgan sifat menejmenti tizimini joriy etish yo'nalishlari tahlil qilingan. Ularning 2020-yilda South Asian Journal of Marketing & Management Research jurnalida chop etilgan maqolasida korxonalar faoliyatida ISO standartlarini amaliyotga tatbiq etish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, chiqindilarni kamaytirish va eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar ulushini ko'paytirish mexanizmlari asoslab berilgan. Ushbu yondashuv to'qimachilik korxonalarida sifat nazorati tizimini takomillashtirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va xalqaro bozorlarda raqobatbardosh brend yaratishda muhim amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Rasuljanovich O.A. (2023) Namangan viloyatining innovatsion rivojlanishidagi mavjud muammolar va ularning yechimlariga bag'ishlangan tadqiqotida to'qimachilik tarmog'ining hududiy o'ziga xos xususiyatlariga e'tibor qaratgan. U eksport faoliyatini rivojlantirish uchun mintaqaviy innovatsion infratuzilmani kengaytirish, texnologik yangilanishni jadallashtirish hamda kadrlar salohiyatini oshirish zarurligini ta'kidlaydi. Ushbu yondashuv to'qimachilik tarmog'ida ishlab chiqarishdan eksportgacha bo'lgan zanjirning barcha bosqichlarini integratsiyalashgan tizim sifatida ko'rishga imkon beradi.

Shuningdek, Oqboyev A.R.ning 2023-yilda "Biznes – Ekspert" jurnalida chop etilgan ishida tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini oshirish uchun xalqaro standartlarni joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari yoritilgan. Muallif tadqiqotida eksport salohiyatini oshirishning asosiy omillari sifatida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, sifat menejmentini joriy etish va mahsulotlarni sertifikatlashtirish tizimini takomillashtirishni ko'rsatadi. Uning fikricha, eksport faoliyatini rivojlantirishda davlat qo'llab-quvvatlovi, infratuzilma imkoniyatlari va xalqaro marketing strategiyalarining uyg'unligi muhim o'rin tutadi.

Mazkur manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, to'qimachilik mahsulotlari eksport salohiyatini rivojlantirishda asosiy e'tibor korxonalarda xalqaro standartlarga asoslangan boshqaruv tizimlarini shakllantirish, sifatni nazorat qilish va innovatsion yechimlarni amaliyotga joriy etishga qaratilishi lozim. Shu yo'l bilan ishlab chiqarish hajmi barqaror oshib boradi, eksport geografiasini kengayadi va yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ulushi ortadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda to'qimachilik mahsulotlari eksport salohiyatini baholash uchun Davlat statistika qo'mitasi, Savdo-sanoat palatasi hamda xalqaro tashkilotlar ma'lumotlaridan foydalanildi. Olingan raqamli ma'lumotlar qiyosiy, statistik va trend tahlili usullari yordamida qayta ishlanib, eksport hajmining dinamikasi va rivojlanish tendensiyalari aniqlab berildi.




TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda to'qimachilik sohasi respublikamiz iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlaridan biriga aylandi. To'qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlarini eksport qilish mamlakatning tashqi savdodagi ulushini oshirish bilan birga, yangi ish o'rinlari yaratish hamda mahalliy xom ashyoni qayta ishlash imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Xorijiy davlatlar, jumladan, Xitoy, Bangladesh va Hindiston tajribasi shuni ko'rsatadiki, to'qimachilik hamda tikuv-trikotaj mahsulotlarini yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlarga aylantirish va xalqaro bozor talablariga mos ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish sohaning asosiy drayveri sifatida xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda mamlakatda 885,8 trillion so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2023-yilga nisbatan 6,8 foizga oshgan. 2025-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, O'zbekistonda sanoat sohasida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari va tashkilotlari soni 55,6 mingni tashkil etgan. So'nggi yillarda sanoat tarkibida to'qimachilik va tikuv-trikotaj tarmoqlarida ham ijobiy o'zgarishlar qayd etilmoqda. Bugungi kunda to'qimachilik tarmog'idagi 6 mingdan ziyod tadbirkorlik subyektlari 570 ming nafar aholini doimiy ish bilan ta'minlab kelmoqda. Shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, sanoat tarmoqlari orasida eng ko'p ish o'rinlari yaratgan hamda eng ko'p aholini band qilgan soha aynan to'qimachilik sanoatidir [1].

So'nggi besh yil davomida O'zbekiston Respublikasida to'qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi izchil oshib bormoqda. 2024-yilda to'qimachilik sanoatining umumiy sanoat tarkibidagi ulushi 11,9 foizni tashkil etib, 2023-yilga nisbatan o'sish tendensiyasini namoyon etgan.

Tahlil natijalariga ko'ra, 2024-yilda to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi 2023-yilga nisbatan 11,1 foizga oshgan bo'lib, ishlab chiqarish hajmi 89 451,2 milliard so'mga yetgan (1-rasm). Ushbu o'sish to'qimachilik sanoatining modernizatsiya qilinishi, innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi, eksport geografiasining kengayishi hamda davlat tomonidan ko'rilayotgan qo'llab-quvvatlov chora-tadbirlari bilan izohlanadi. Mazkur tarmoq to'qimachilik gazlamalari, trikotaj mahsulotlari hamda teri kabi xom ashyolardan samarali foydalanishi bilan ajralib turadi (1-rasm).




1-rasm. O'zbekistonda to'qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish ko'rsatkichlari¹

O'zbekiston Respublikasida kiyim ishlab chiqarish hajmi 2020–2024-yillar davomida barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etgan. 2024-yilda mazkur tarmoqning umumiy ishlab chiqarish sanoatidagi ulushi 4,5 foizni tashkil etib, bu holat kiyim ishlab chiqarish sanoatining milliy iqtisodiyotdagi ahamiyati ortib borayotganini ko'rsatadi.

So'nggi besh yil ichida kiyim ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi 2023-yilga nisbatan 9,4 foizga oshgan bo'lib, bu tarmoqning barqaror rivojlanayotganini tasdiqlaydi. 2024-yilda ushbu sohada ishlab chiqarish hajmi 33 764,2 milliard so'mga yetgan.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, kiyim ishlab chiqarish sanoati milliy ishlab chiqarish tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida o'z salohiyatini yanada kengaytirib bormoqda. Bu esa global raqobatbardoshlik darajasini oshirishga qaratilgan strategik yondashuvlarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etishni talab etadi (2-rasm).

1 O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

2-rasm. O'zbekistonda kiyim ishlab chiqarish ko'rsatkichlari²


To'qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi Andijon, Farg'ona, Toshkent va Namangan viloyatlarida yuqori darajada ekani kuzatiladi. Ushbu hududlarning yuqori ulushi, bir tomondan, ishlab chiqarish quvvatlarining samarali ishlashi, ikkinchi tomondan, yetakchi bozorlar talablariga mos xalqaro standartlarni tatbiq etish orqali mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish va eksport bozorlariga muvaffaqiyatli moslashish bilan izohlanadi. Nisbatan past ulushga ega hududlarda esa investitsiyalarni jalb qilish hamda ishlab chiqarishni kengaytirish strategiyasini ishlab chiqish zarur.

O'zbekistonda to'qimachilik mahsulotlari eksporti hududlar kesimida tahlil qilinganda, eksport hajmlarining farqli darajada ekanligi aniqlanadi. Jumladan, Andijon viloyati 492,1 million AQSh dollari yoki 17,2 foiz ko'rsatkich bilan yetakchi hudud sifatida ajralib turadi. Bu holat mazkur viloyatning yirik ishlab chiqarish quvvatlariga ega ekanligi va xalqaro bozorlarga yuqori darajada integratsiyalashganligini ko'rsatadi. Toshkent viloyati (392,4 million AQSh dollari yoki 13,7 foiz) hamda Toshkent shahri (349,4 million AQSh dollari yoki 12,2 foiz) eksport hajmi bo'yicha yuqori natijalarga erishgan [2]. Toshkent shahri va viloyati ilg'or infratuzilma, rivojlangan logistika tizimi va tashqi savdo imkoniyatlari bilan ajralib turadi (3-rasm).

Namangan viloyati 301,1 million AQSh dollari (10,5 foiz) va Farg'ona viloyati 284,8 million AQSh dollari (9,9 foiz) bilan to'qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari eksportining yetakchi hududlari qatorida turadi. Ularning eksport salohiyati, asosan, mavjud sanoat quvvatlari, malakali ishchi kuchi va mahsulot sifatining yuqoriligi bilan bog'liq.

Qashqadaryo viloyati (256,2 million AQSh dollari), Buxoro (139,2 million AQSh dollari) va Samarqand (139,1 million AQSh dollari) viloyatlari o'rtacha eksport hajmiga ega bo'lib, ushbu hududlarda ishlab chiqarish salohiyati va tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlari bosqichma-bosqich yaxshilanmoqda.

Nisbatan past eksport hajmiga ega hududlar qatoriga Sirdaryo (78,5 million AQSh dollari), Surxondaryo (59,3 million AQSh dollari) va Qoraqalpog'iston Respublikasi (41,7 million AQSh dollari) kiradi. (3-rasm).

3-rasm. O'zbekiston viloyatlari kesimida to'qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari eksport ko'rsatkichlari³

² O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

³ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari.




Umuman olganda, O'zbekistonda to'qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari eksportining asosiy qismi Andijon, Toshkent viloyati, Toshkent shahri hamda Namangan viloyatiga to'g'ri keladi. Ushbu hududlar xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlari, ishlab chiqarish quvvatlari va mahsulot sifati bo'yicha ustunlikka ega. Shu bilan birga, eksport hajmi past bo'lgan hududlar uchun investitsiyalarni jalb qilish, logistika tizimini takomillashtirish va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dolzarb vazifa hisoblanadi [3].

To'qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari eksporti hajmi 2020-yilda 1 922,4 million dollardan 2024-yilda 2 867,4 million dollargacha oshib, 49,2 foiz o'sishga erishgan. Yillar kesimida ko'rilganda, 2021-yilda eksport hajmi 5,3 foizga, 2022-yilda 8,6 foizga oshgan bo'lsa, 2023-yilda 4 foizga, 2024-yilda esa 6 foizga pasaygan.

To'qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari eksportining jami milliy eksportdagi ulushi 2020-yilda 12,7 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilda bu ko'rsatkich 17,6 foizgacha oshgan, biroq 2024-yilda 10,6 foizgacha kamaygan [4].

Ushbu pasayishning sababi sifatida to'qimachilik eksporti o'sish sur'atlarining jami eksport hajmiga nisbatan past bo'lishi ko'rsatiladi. So'nggi ikki yilda jahon bozorida to'qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlariga bo'lgan talabning kamayishi, shuningdek, eksport bozorlarida valyuta kurslari o'zgaruvchanligi bilan bog'liq muammolar kuzatilgan [5]. Tahlil natijalariga ko'ra, 2024-yilda to'qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari eksporti 2023-yilga nisbatan 4,2 foizga kamaygan. To'qimachilik eksportining jami eksportdagi ulushi pasaygani esa iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari tezroq o'sayotgani, natijada to'qimachilik tarmog'ining nisbiy ahamiyati qisqarayotganini ko'rsatadi (4-rasm).



4-rasm. O'zbekiston Respublikasida 2020-2024-yillardagi eksport ko'rsatkichlari va to'qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari eksporti ulushi⁴ (mln. AQSh dollari)

Shuningdek, to'qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari eksportining qariyb 80 foizi asosan to'rtta asosiy bozorga — Rossiya, Xitoy, Qozog'iston va Turkiyaga yo'naltirilgani kuzatiladi. Eksportning bunday yuqori darajada cheklangan geografik tarkibi, ya'ni ayrim mahsulot turlari birgina bozorga qaram holga kelgani, shuningdek, hamkor davlatlardagi iqtisodiy va siyosiy vaziyatlarning o'zgaruvchanligi eksport hajmining kamayishiga bevosita ta'sir ko'rsatgan. Bundan tashqari, eksport qilinayotgan mahsulotlarning 43,2 foizi xom ashyo, 15,3 foizi esa yarim tayyor mahsulotlardan iborat bo'lib, ularning narxi tashqi bozorlardagi konyunkturaga kuchli darajada bog'liq holda shakllanmoqda.

2024-yilda to'qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari eksport geografiyasi uchta yangi davlat hisobiga kengayib, umumiy eksport yo'nalishlari soni 83 taga yetgan. Biroq hanzugacha eksportning qariyb 80 foizi Rossiya, Xitoy va Turkiya bozorlariga to'g'ri kelmoqda. Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, 2023-yildan boshlab to'qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari eksportida pasayish tendensiyasi kuzatilmog'ida [6].

Eksportning asosan paxtadan yigirilgan ip kabi xom ashyoga tayanib qolayotgani qiymat zanjirining qisqarishiga olib kelmoqda. Shu bilan birga, eksport bozorlarini diversifikatsiya qilish bo'yicha chora-tadbirlarning o'z vaqtida yetarli darajada amalga oshirilmaganligi Yevropa, Amerika va boshqa rivojlangan davlatlar bozorlariga kirishda muayyan to'siqlarni keltirib chiqarmoqda [7]. Buning sabablari qatorida, avvalo, ushbu bozorlarga eksport qilish uchun tadbirkorlik subyektlaridan xalqaro standartlar va sertifikatning mavjudligi talab etilishini ko'rsatish mumkin.

4 O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston to'qimachilik mahsulotlari eksport salohiyatiga oid tahlillar shuni ko'rsatadiki, sohada ishlab chiqarish hajmi barqaror o'sib bormoqda va eksport geografiyasi bosqichma-bosqich kengaymoqda. Bu jarayon to'qimachilik tarmog'ining ichki imkoniyatlari, ishlab chiqarish texnologiyalarining modernizatsiyasi hamda xalqaro hamkorlikning faollashuvi bilan izohlanadi. Eksport tarkibida xom ashyo va yarim tayyor mahsulotlar ulushi sezilarli bo'lishiga qaramay, bu holat tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni bosqichma-bosqich kengaytirish uchun salmoqli zaxira mavjudligini ko'rsatadi. Eksport hajmining o'zgaruvchanligi esa iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari rivojlanishi va global bozor konyunkturasi ta'siri ostida tabiiy moslashuv jarayoni sifatida baholanadi. Hududlar kesimida kuzatilayotgan tafovutlar esa mintaqaviy ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish samaradorligini yanada oshirish imkoniyatlarini ochib bermoqda.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, quyidagi ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. Birinchidan, eksport diversifikatsiyasini ta'minlash lozim — to'qimachilik mahsulotlari eksportini cheklangan bozorlar va mahsulot turlaridan kengaytirib, yangi davlatlar hamda yuqori talabga ega segmentlarga yo'naltirish maqsadga muvofiqdir. Ikkinchidan, qo'shilgan qiymatni oshirish muhim — xom ashyo eksportini kamaytirish, tayyor mahsulot va brendli kiyim-kechak ishlab chiqarishni rag'batlantirish zarur. Uchinchidan, hududiy imkoniyatlardan samarali foydalanish orqali viloyatlar kesimida ishlab chiqarish quvvatlarini to'liq ishga solish, mahalliy eksportchilarni moliyaviy va tashkiliy jihatdan qo'llab-quvvatlash talab etiladi. To'rtinchidan, xalqaro standartlarni joriy etish — mahsulot sifatini oshirish va global bozorlarga kirishni kengaytirish uchun ISO, OEKO-TEX, GOTS kabi xalqaro sertifikatlash tizimlarini joriy etish mexanizmlarini kuchaytirish zarur [8].

Bundan tashqari, davlat tomonidan eksportchi korxonalar uchun moliyaviy imtiyozlar, eksport sug'urtasi, logistika xarajatlarini qoplash dasturlari va kredit resurslariga imtiyozli kirish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish, yangi texnologiyalarni joriy etish, Industry 4.0 yechimlarini tatbiq etish hamda elektron savdo platformalarini rivojlantirish sohaning raqamli transformatsiyasini jadallashtiradi. Marketing va brending yo'nalishida esa milliy to'qimachilik mahsulotlarini xalqaro brend sifatida targ'ib qilish, onlayn savdo platformalarida faol reklama kampaniyalarini yo'lga qo'yish tavsiya etiladi [9].

Umuman olganda, to'qimachilik mahsulotlarining eksport salohiyatini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ushbu soha mamlakat iqtisodiyotida muhim o'rin egallab kelmoqda. Biroq eksport hajmi va tarkibida ayrim tizimli muammolar mavjud bo'lib, ularning asosan cheklangan bozorlar va mahsulot turlariga qaramligi, xom ashyo ulushining yuqoriligi hamda tashqi iqtisodiy omillarga bog'liqligi barqaror rivojlanish jarayoniga to'sqinlik qilmoqda. Shu bilan birga, yangi bozorlarning o'zlashtirilishi, eksport geografiyasining kengayishi va yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishga e'tibor kuchaytirish to'qimachilik sanoatining istiqbolli yo'nalishlari sifatida namoyan bo'lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2024-il 16-aprel kungi to'qimachilik sohasida eksport va investitsiya hajmlarini oshirish chora-tadbirlari yuzasidan o'tkazilgan videoselektordagi ma'ruzasidan.
2. Oqboyev, A. (2025). Tadbirkorlik subyektlari faoliyatida xalqaro standartlarni joriy etish metodologiyasi. MUHANDISLIK VA IQTISODIYOT, 3(1).
3. Oqboyev, A. (2024). Tadbirkorlik subyektlarida xalqaro sifat standartlarini joriy etish tahlili.
4. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari.
5. Okboev A.R., O.J.Ashurkulov Directions for the introduction of an integrated quality management system to increase the competitiveness of light industry enterprises // South Asian Journal of Marketing & Management Research (SAJMMR). Vol.10, Issue 11, November 2020 Impact Factor: SJIF#23 2020= 7.11. pp. 107-10.
6. International Trade Centre (ITC). *Trade Map Database: Textile and Clothing Exports of Uzbekistan*. – Geneva, ITC,
7. Rasuljanovich, OA (2023). EXISTING PROBLEMS IN INNOVATIVE DEVELOPMENT OF NAMANGAN REGION AND THEIR SOLUTIONS. Conference, 19-24.
8. Oqboyev A.R. Xalqaro standartlarni joriy etish asosida tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini oshirish // Biznes – Ekspert. –Toshkent, 2023. –№9(189). –B. 29-32. (08.00.00, №3).
9. Okboev A.R., O.J.Ashurkulov Directions for the introduction of an integrated quality management system to increase the competitiveness of light industry enterprises // South Asian Journal of Marketing & Management Research (SAJMMR). Vol.10, Issue 11, November 2020 Impact Factor: SJIF#23 2020= 7.11. pp. 107-10.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
